



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
IQTISODIV TARAOQIQOT VA KAMBAĞ'ALLIKNI  
QISQARTIRISH VAZIRLIGI



• • • •

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BARQAROR  
RIVOJOLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH  
BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR**

Toshkent-2022

## O'zbekiston Respublikasida Barqaror rivojolanish maqsadlariga erishish borasida amalga oshirilgan ishlar

**2015-yilda** O'zbekiston Hukumati **2030-yilgacha** bo'lgan davrda **BMT Global kun tartibining Barqaror rivojolanish maqsadlarini (BRM)** amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. **2018-yilda** barqaror rivojlanish sohasida **16 ta milliy maqsad** va ularga oid **125 ta vazifa** qabul qilindi. Shu bilan birga, BRMni ro'yobga chiqarishga doir "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish bo'yicha **Muvofiqlashtiruvchi kengash** ham tashkil etildi. **2019-yil 20-martda** Muvofiqlashtiruvchi kengash maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun **206 ta** ko'rsatkichni tasdiqladi. Shuningdek, **BMTTD** ko'magida **119 ga** yaqin ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lgan veb-portal (<http://nsdg.stat.uz>) ishga tushirildi va qolgan yana **80 ta** ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar yig'ish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekistonda **BRM**ning amalga oshirilishi **2017–2021-yillarga mo'ljallangan Milliy Harakatlar strategiyasi** doirasidagi keng ko'lamli islohotlar davriga to'g'ri keldi. Ushbu Harakatlar strategiyasi va uning **beshta ustuvor yo'naliши BRM**ga erishish yo'li sifatida tasdiqlandi. **BRM**ni milliy va mintaqaviy rivojlanish strategiyasi va dasturlari, jumladan, **2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiysi** bilan birlashtirish ishlari olib borilgan.

Hozirgi vaqtida **190 dan ortiq** strategik hujjatlar, tarmoq va mintaqaviy dasturlar hamda strategiyalar **BRM vazifalari va ko'rsatkichlarini** o'z ichiga oladi. Hukumat **23 ta global reyting** (indekslar), jumladan, **BRM** global reytingi orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini kuzatib boradi. Unga ko'ra, O'zbekiston hozirda **77-o'rinni** egallab turibdi.

**2020-yilda** O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi **Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha** bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha **Parlament komissiyasi** tuzilib, uning Nizomi tasdiqlandi. O'zining qonun ijodkorligi va nazorat qiluvchi vakolatlaridan foydalangan holda, parlamentning har ikki palatasi barqaror rivojlanishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Bu ishlarga fuqarolik jamiyati, yoshlar va mahalliy NNT ham jalb etilgan.

**BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi** ko'magida **2020-yil 15-iyul** kuni o'tkazilgan yuqori darajadagi siyosiy forum doirasida O'zbekiston **BRM**ni amalga oshirishda erishilgan yutuqlar to'g'risida mamlakatning **birinchi Ixtiyoriy milliy hisobotini** tayyorladi va O'zbekiston Respublikasi Senati Raisi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'alikni qisqartirish vazirining birinchi o'rribbosari tomonidan taqdim etildi.

O'zbekistonda **2021-yil 10–24-iyun** kunlari "*Hech kim e'tibordan chetda qolmaydi!*" shiori ostida **Barqaror rivojlanish haftaligi** o'tkazildi. Shu bilan birga,

haftalik *Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi tarkibiy tuzilmalari* bilan birgalikda o'tkazildi.

**2021-yil 23–24-iyun** kunlari Buxoro shahrida "*Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda global parlamentlararo hamkorlik*" nomli xalqaro forum o'tkazildi. Ushbu forum barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlashga, o'zaro tajriba almashishga, shuningdek, yangi g'oyalar va tashabbuslarni ilgari surishga qaratilgan.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda global parlamentlararo hamkorlik xalqaro forumi yakuniga ko'ra **Buxoro Deklaratsiyasi** qabul qilingan.

Shu bilan birga, so'nggi to'rt yil ichida O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishda qator chora-tadbirlar majmuyining maqsadli amalga oshirilishi natijasida sezilarli yutuqlarga erishdi. **2030-yilgacha** bo'lgan davrda **barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar**ning qabul qilinishi barqaror rivojlanishning milliy standartlarini ishlab chiqish hamda uning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ekologik jihatlarini uyg'unlashtirish orqali farovonlik darajasini oshirish maqsadida yangi global hamkorlik uchun zamin yaratdi.

**2020-yil iyul** oyida O'zbekiston ilk bor o'zining **Barqaror rivojlanish maqsadlariga** erishish borasida Milliy ixtiyoriy hisobotini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining yuqori darajadagi siyosiy forumida taqdim etdi. Forum yakuniga ko'ra, xalqaro tashkilotlar tomonidan **BRM**larga erishishni jadalashtirish borasida quyidagi takliflar tavsiya etildi:

- Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarining maqsad va vazifalarini milliy, tarmoq va hududiy strategiyalarga integratsiyasini jadallashtirish;
- Milliy **BRM**lar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va monitoring qilish bo'yicha milliy statistika salohiyatini yanada kuchaytirish;
- Davlat, xususiy, ichki hamda tashqi moliyalashtirishni safarbar qilish va samaradorligini oshirish orqali barqaror rivojlanishni kompleks milliy moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- **BRM**ni amalga oshirishda fuqarolik jamiyatni va xususiy sektorning roli va ishtirokini yanada oshirish.

Biroq koronavirus pandemiyasi nafaqat mamlakat oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishishda, balki **Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini** (keyingi o'rnlarda – **Milliy BRM** deb yuritiladi) amalga oshirishda tarmoqlararo muvofiqlashtirish va barcha manfaatdor tomonlarning belgilangan vazifalarini amalga oshirishga ham ta'sir etdi. Hozirgi kunda pandemianing salbiy ta'sirini bartaraf etish va **Milliy BRM**ning barcha maqsad va vazifalarini bajarishda kelajakda amaliy harakatlarni yo'nga qo'yish uchun kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rish zaruriyati paydo bo'lib, **2022-yil 21-fevral** kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan "**2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish**

sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **83-son** qarori qabul qilingan.

Ushbu qaror makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, **Milliy BRM**ni amalga oshirishda pandemianing ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish, yumshatish va **Milliy BRM**larda ko'zda tutilgan indikatorlarning sifatli bajarilishi hamda 2030-yilgacha bo'lgan Milliy maqsad va vazifalarga erishishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Qarorda **2021–2030-yillarda** quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish orqali **BRM**larga kompleks yondashuvni joriy etish nazarda tutilgan:

inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali **BRM**larga erishishni yanada takomillashtirildi;

**BRM**larni amalga oshirishda tarmoqlararo muvofiqlashtirish va integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlash maqsadida "*Iqtisodiy farovonlik*", "*Ijtimoiy himoya*", "*Sog'liqni saqlash*", "*Ta'lim*", "*Atrof-muhit*" va "*Samarali boshqaruv*" yo'nalishlari bo'yicha Ekspert guruhlarining tarkiblari yangilandi va kengaytirildi;

**BRM milliy indikatorlari** bo'yicha **Idoralararo ishchi guruhining** tarkibi yangilandi va kengaytirildi;

Ekspert va Idoralararo ishchi guruhlarining **asosiy vazifalari** belgilandi;

barqaror rivojlanish sohasidagi **Milliy maqsad va vazifalarga** samarali erishish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib tasdiqlandi;

**2030-yilgacha** bo'lgan davrda mutasaddi vazirlik va idoralarga har bir **Milliy BRM** va indikatorlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishi va joriy etishi belgilangan.

Shu bilan birga, qaror bilan **2030-yilgacha** bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Muvoqiqlashtiruvchi kengashning yangilangan tarkibi tasdiqlandi.